| Xronotop nazariyasiga tahliliy yondoshuvlar va qarashlar .....                                                                                                                       | 265 |
| <b>Avazov Vahabjon Tolibjon o'g'li</b>                                                                                                                                               |     |
| Ko'zi ojiz bolalarning rus tili darslarida nutqiy kompetensiyasini shakllantirishning psixopedagogik asoslari .....                                                                  | 268 |
| <b>Abduraximov Asror Sultonali o'g'li</b>                                                                                                                                            |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasblar haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari .....                                                         | 271 |
| <b>Adizova Nilufar Quvondiq qizi</b>                                                                                                                                                 |     |
| Zamonaviy media texnologiyalarini ta'lim jarayoniga qo'llashning zarurati .....                                                                                                      | 274 |
| <b>Alimov Asadulla Urokbayevich</b>                                                                                                                                                  |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning ta'siri .....                                                                                                        | 278 |
| <b>Alimova Umida Jumaboy qizi</b>                                                                                                                                                    |     |
| Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi ..... | 282 |
| <b>Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna</b>                                                                                                                                          |     |
| Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining rivojlanish tarixi va ommalashuvi .....                                                                                            | 286 |
| <b>Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna</b>                                                                                                                                                 |     |
| Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida raqamli resurslardan foydalanish orqali adabiy kompetensiyani rivojlantirish .....                                                     | 289 |
| <b>Islomova Xafiza Azamatovna</b>                                                                                                                                                    |     |
| Ona tili o'qitish metodikasi fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish .....                                                                                                           | 293 |
| <b>Ismadiyorova Nafisaxon Ibroximjon qizi</b>                                                                                                                                        |     |
| Axloqshunoslikning global muammolari va texnikaviy muhitning inson hayotiga ta'siri .....                                                                                            | 298 |
| <b>Kozimova Nargiza Istam qizi</b>                                                                                                                                                   |     |
| Ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompetentlikni oshirish va baholash usullarining xalqaro tahlili .....                                                                     | 303 |
| <b>Mamatqulova Sanobar Ismatillayevna, Eshmurzayev Yigitali Shokirovich, Kadirova Durdonaxon Rustamovna</b>                                                                          |     |
| Tabiiy fanlarda bilingval ta'lim va CLIL yondashuv .....                                                                                                                             | 309 |
| <b>Mannobxonova Muqaddamxon O'ktamxon qizi</b>                                                                                                                                       |     |



|                                                                                                                     |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda pragmatik muammolar va ularning yechimlari .....                       | 313 |
| <b>Maxmudova Nigoraxon Boyqo'zi qizi</b>                                                                            |     |
| Poshshoxo'ja Ibn Abduvahobxo'janing "Miftoh ul-adl" asaridagi pedagogik qarashlari .....                            | 317 |
| <b>Muzaffarova Farida Muxtor qizi</b>                                                                               |     |
| Boshlang'ich ta'lim jarayonida matn tushunishni shakllantirishda<br>germenevtik metodlarning nazariy asoslari ..... | 321 |
| <b>Nazirova Shaxnoza Odinajon qizi</b>                                                                              |     |
| Axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishda raqamli gigiyena va internet xavfsizligi.....                       | 324 |
| <b>Ramazonov Jahongir Djalolovich</b>                                                                               |     |
| Informatika fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar .....                                                          | 328 |
| <b>Sadinov Otabek Vaxodirovich</b>                                                                                  |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijtimoiylashuvida musiqa fanining ta'siri.....                                    | 332 |
| <b>Shahobiddinova Zilola Orif qizi</b>                                                                              |     |
| Madaniy-ijtimoiy va ta'limiy omillarning bolalarning aqliy rivojlanishiga ta'siri .....                             | 335 |
| <b>Shirinov Otabek Tuvalovich</b>                                                                                   |     |
| Tadqiqot metodi vositasida o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish.....                             | 338 |
| <b>Suyarov Kusharbay Tashbayevich</b>                                                                               |     |
| Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasi va nutq madaniyati .....                  | 342 |
| <b>Saipova Hilola Abduhamitovna</b>                                                                                 |     |
| "Ekologik ochiq o'yinlar" 5–7 yoshli bolalar uchun.....                                                             | 346 |
| <b>Tangirov Zoir Xo'jakulovich</b>                                                                                  |     |
| Yuqori malakali taekvondochilarni o'ziga xos genetik xususiyatlarini<br>hisobga olgan holda sport seleksiyasi.....  | 350 |
| <b>Tursunaliyev Ulug'bek Shavkatjon o'g'li</b>                                                                      |     |
| Musiqa maktabi o'quvchilarida madaniy qadriyatlar va ustoz-shogird an'alarining uzluksiz rivojlanishi ..            | 353 |
| <b>Seytanov Bayrambay</b>                                                                                           |     |



# TABIY FANLARDA BILINGVAL TA'LIM VA CLIL YONDASHUV

Mannobxonova Muqaddamxon O'ktamxon qizi  
Guliston davlat universiteti tayanch doktranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirishda bilingval kompetensiyalar va CLIL ta'lim texnologiyalaridan foydalanish masalasi yoritilgan. Tadqiqot davomida 6-sinf "Tabiiy fan" kursini ikki tilli (o'zbek–ingliz) yondashuv asosida o'qitish samaradorligi eksperimental-tajriba asosida o'rganildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari o'quvchilarda nafaqat ilmiy bilim, balki fan tilini ikki tilda ifodalay olish, ilmiy tafakkur va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilganini ko'rsatdi. CLIL texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan mashg'ulotlar va metodik yondashuvlar biologiya ta'limida ilmiy savodxonlikni oshirishda samarali vosita sifatida baholandi.

**Kalit so'zlar:** bilingval kompetensiya, CLIL texnologiyasi, tabiiy-ilmiy savodxonlik, fan tili, ikki tillilik, biologiya, o'quv jarayoni.

**Abstract:** This article discusses the application of bilingual competencies and CLIL (Content and Language Integrated Learning) methodology in the development of scientific literacy. The study investigates the effectiveness of teaching the 6th-grade "Science" course using a bilingual (Uzbek–English) approach through experimental research. The results of the pedagogical experiment showed that students not only gained scientific knowledge but also improved their ability to express scientific concepts in both languages, enhancing scientific reasoning and communication skills. The lessons and methodological approaches developed based on CLIL proved to be effective tools for enhancing scientific literacy in biology education.

**Key words:** bilingual competence, CLIL technology, scientific literacy, language of science, bilingualism, biology, educational process.

**Аннотация:** В статье рассматривается применение билингвальных компетенций и технологии CLIL (интегрированное обучение предмету и языку) в процессе формирования естественно-научной грамотности. В исследовании проанализирована эффективность преподавания предмета "Естествознание" в 6-м классе с использованием двуязычного (узбекско–английского) подхода на основе экспериментальных данных. Результаты педагогического эксперимента показали, что учащиеся не только приобрели научные знания, но и развили умения выражать научные понятия на двух языках, что способствовало формированию научного мышления и коммуникативных навыков. Занятия и методические подходы, разработанные на основе технологии CLIL, доказали свою эффективность в повышении научной грамотности в преподавании биологии.

**Ключевые слова:** билингвальная компетенция, технология CLIL, естественно-научная грамотность, язык науки, двуязычие, биология, учебный процесс.

## KIRISH

Tadqiqotning dolzarbligi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda maktab ta'limi kontenti va metodologiyasini tubdan yangilash bo'yicha bir qator tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqot tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4884-sonli<sup>1</sup> qarorida ta'lim va ilm-fan taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari belgilandi hamda xorijiy ekspertlar bilan hamkorlikda "Milliy o'quv dasturi"ni ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Ushbu hujjatda umumiy o'rta ta'limning mazmuni zamonaviy kompetensiyalar, xususan, tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirishga yo'naltirilishi ta'kidlandi <sup>[12]</sup>.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqot tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4884-sonli qarorida: <https://lex.uz/ru/docs/-5085887?ONDATE=31.05.2023&ONDATE2=26.03.2021&action=compare>



Bu esa, o'z navbatida, fanning mazmunini chet tili resurslari bilan boyitish, fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL) imkoniyatlarini kengaytiradi.

Milliy o'quv dasturini bosqichma-bosqich joriy etish doirasida "SCIENCE/Tabiiy fan" integrallashgan fani 1–6-sinflarda yagona tizim sifatida tashkil etildi. Uning asosiy maqsadi o'quvchilarda kundalik hayotiy muammolarni ilmiy dalillar asosida hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Xususan, 6-sinf "Tabiiy fan" kursida (moddalar va ularning xossalari, energiya va o'zgarishlar, yer va koinot kabi bloklar) bilimni o'zlashtirish bilan birga fan tilini (ta'riflash, tasniflash, sabab-oqibatni izohlash, gipoteza ilgari surish, dalillarni keltirish va xulosalash) va parallel holatda ilmiy atamalarning ingliz tilidagi terminologiyasini ham rivojlantirish talab qilinadi. Milliy darsliklarga mos ravishda o'quv jarayonini ikki tili (o'zbek–ingliz) resurslar bilan ta'minlash, terminologik uyg'unlik va kognitiv tayanchlarni qurish ilmiy savodxonlikni oshirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot muammosi.** Amaldagi islohotlar ta'lim mazmunini yangilagan bo'lsa-da, 6-sinf "Tabiiy fan" darslarida bilingval kompetensiyalarni shakllantirishning metodik mexanizmlari har doim ham tizimli tarzda yo'lga qo'yilmagan:

- fan terminlari va konseptlarini ikki tilda (o'zbek–ingliz) barqaror bog'lash bo'yicha o'qituvchi qo'llanmalarida bo'shliqlar mavjud;
- baholash mezonlari ko'proq faktik bilimga yo'nalgani, ilmiy dalillash va fan tilidan foydalanish kabi ko'nikmalarni muntazam o'lchash mexanizmlari yetarli darajada izchil emas;
- o'quvchilar uchun CLILga mos kognitiv tayanchlar yetarli darajada standartlashtirilmagan;
- o'qituvchilarning chet tili resurslari bilan ishlash va fan tilini integratsiyalash kompetensiyasini doimiy rivojlantirish mexanizmlari muntazamligini ta'minlash zarur <sup>[3]</sup>.

Tadqiqotning maqsadi: adabiyotlarni o'rganish, kuzatish, nazariy asoslash, eksperimental tajriba, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish metodlari asosida 6-sinf o'quvchilarida tabiiy fanni o'qitishda bilingvizm va CLIL ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish.

#### **Tadqiqot vazifalari:**

- tabiiy-ilmiy savodxonlikni takomillashtirishda bilingvizm amaliyotini tadbiiq etishning nazariy asoslarini ishlab chiqish;
- CLIL ta'lim texnologiyasi asosida biologiyadan mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish uslubiyotini yaratish;
- CLIL ta'lim texnologiyalari asosida o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni takomillashtirish metodikalarini ishlab chiqish;
- bilingval yondashuvning CLIL ta'lim texnologiyalari asosida tabiiy-ilmiy savodxonlikning metodik ta'minotini takomillashtirish.

## **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI**

Bilingval kompetensiyalar tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirishda muhim omil sifatida qaraladi. Chunki o'quvchi nafaqat ilmiy bilimlarni egallaydi, balki ularni turli tillarda qayta ifodalay olish orqali ilmiy tafakkur ko'lamini kengaytiradi. Bilingval kompetensiyaning birinchi vazifasi – mazmunni chuqur anglashdir. Ilmiy atamalarni ikki tilda o'zlashtirish o'quvchiga fanning asosiy tushunchalarini chuqur anglash imkonini beradi. Masalan, biologiyada cell va hujayra tushunchalarini taqqoslash jarayonida o'quvchilar terminlarning lingvistik va mazmuniy xususiyatlarini qiyoslaydi, bu esa ularning ilmiy tafakkurini rivojlantiradi <sup>[5]</sup>.

Ikkinchi vazifasi esa – ilmiy muloqot kompetensiyasini shakllantirishdir. Chunki tabiiy-ilmiy savodxonlik nafaqat bilim olish, balki uni muloqot jarayonida ifodalay olishni ham talab qiladi. Bilingval ta'lim sharoitida o'quvchilar ilmiy tajribalar, laboratoriya ishlari yoki loyihaviy faoliyat natijalarini ikki tilda ifodalaydi, bu esa ularda kommunikativ savodxonlikni kuchaytiradi <sup>[7]</sup>.

Shuningdek, A.K. Raximovning ta'kidlashicha, tabiiy-ilmiy ta'lim jarayonida bilingval kompetensiyani shakllantirish nafaqat fan mazmunini o'zlashtirishni yengillashtiradi, balki o'quvchilarning kritik fikrlash va tahliliy yondashuvini rivojlantirishga xizmat qiladi <sup>[15]</sup>. N.A. Mirzayeva esa bilingval yondashuvni tabiiy fanlarda qo'llash natijasida o'quvchilarda ilmiy tushunchalarni anglash tezligi va ijtimoiy faoliyatda qo'llash ko'nikmalari oshishini alohida qayd etadi <sup>[10]</sup>.

Xorijiy tadqiqotchilardan J. Cumminsning fikricha, ikkinchi til orqali fanlarni o'qitish o'quvchilarning kognitiv-akademik til kompetensiyasini rivojlantiradi, bu esa tabiiy-ilmiy savodxonlikning shakllanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi <sup>[4]</sup>. D. Marsh va D. Coyle tomonidan ishlab chiqilgan CLIL modeli ham aynan shu



g'oyaga asoslanadi – til va fan integratsiyasi orqali o'quvchilarda bilimning chuqurroq o'zlashtirilishi va kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishiga sabab bo'ladi [3].

Demak, bilingval kompetensiyalar tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirishda mazmunni chuqur anglash, ilmiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, kognitiv va kritik tafakkurni kuchaytirish kabi jarayonlarga xizmat qiladi. Bu esa o'quvchilarni nafaqat ilmiy bilimli, balki global kommunikativ muhitda faol ishtirok eta oladigan shaxs sifatida shakllantirish imkonini beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot muammosi doirasida bajarilgan ilmiy tadqiqotlar, pedagogika va biologiya o'qitish metodikasi sohasida yaratilgan metodik qo'llanmalar va tavsiyalar mazmuni bilan nazariy tanishib chiqish asosida amaliy tajriba-sinov ishlari tashkil etilib, tajriba-sinov ishlarining samaradorligi va olingan natijalarning matematik-statistik tahlili ishlab chiqildi.


## TAHLIL VA NATIJALAR

2024-2025 o'quv yilida tadqiqot davomida 61 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Tanlangan sinfdagi tajriba-sinov ishlarining natijalari o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikning shakllanganlik darajalarini aniqlash mezonlariga asosan tajriba va nazorat sinflarida tajriba boshida hamda tajriba yakunida olingan qiymatlar bilan taqqoslandi. 2024-2025 o'quv yilidagi o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikning shakllanganlik darajalari va sifat ko'rsatkichi quyidagi jadvalda o'z aksini topgan.

1-jadval: Pedagogik tajriba-sinov natijalari samaradorligi

| Guruh mezonlar<br>tajriba boshi                | Tajriba guruhi<br>(N=31)               |               |                  |                   | Nazorat guruhi<br>(N=30)    |               |                  |                   |
|------------------------------------------------|----------------------------------------|---------------|------------------|-------------------|-----------------------------|---------------|------------------|-------------------|
| Rivojlanganlik<br>darajasi                     | A'lo<br>(5)                            | Yaxshi<br>(4) | Qoniqarli<br>(3) | Qoniqarsiz<br>(2) | A'lo<br>(5)                 | Yaxshi<br>(4) | Qoniqarli<br>(3) | Qoniqarsiz<br>(2) |
| I chorak                                       | 9                                      | 12            | 10               | -                 | 6                           | 13            | 11               |                   |
| II chorak                                      | 10                                     | 12            | 9                | -                 | 7                           | 14            | 9                |                   |
| III chorak                                     | 10                                     | 13            | 8                | -                 | 7                           | 13            | 10               | -                 |
| IV chorak                                      | 9                                      | 13            | 9                | -                 | 6                           | 14            | 10               | -                 |
| Darajalarning<br>o'rtacha arifmetik<br>qiymati | 4                                      |               |                  |                   | 3,9                         |               |                  |                   |
| Samaradorlik<br>koeffisiyenti                  | 1,03                                   |               |                  |                   |                             |               |                  |                   |
| Tanlanma dispersiya                            | 0,58                                   |               |                  |                   | 0,51                        |               |                  |                   |
| O'rta qiymatlar<br>standart xatolari           | 0,76                                   |               |                  |                   | 0,71                        |               |                  |                   |
| X ning ishonchlilik<br>oralig'i                | 4,76<X <sub>T</sub> *< 3,24            |               |                  |                   | 4,61<X <sub>T</sub> *< 3,19 |               |                  |                   |
| Student statistikasi                           | T=0,25                                 |               |                  |                   |                             |               |                  |                   |
| Statistik ozodlik<br>darajasi                  | K=50                                   |               |                  |                   |                             |               |                  |                   |
| Kriteriy xulosasi                              | H <sub>1</sub> gipoteza qabul qilinadi |               |                  |                   |                             |               |                  |                   |

Tajriba sinfining o'quv yili davomidagi samaradorlik ko'rsatkichi nazorat sinflari ko'rsatkichiga nisbatan o'rtacha 6 foizga yuqori ekanligi statistik usullar yordamida isbotlandi.



1-rasm: O'quvchilarning 2021-2022 o'quv yili I-IV choraklardagi sifat ko'rsatkichlari diagrammasi

2024-2025 o'quv yilida tadqiqot davomida 61 nafar o'quvchi ishtirok etgan bo'lib, tajriba-sinov ishlarining natijalari o'quvchilarda biologiyani ikki tillilikka asoslanib o'qitishda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish asosida tajriba va nazorat sinflarida tajriba boshida hamda tajriba yakunida olingan qiymatlar bilan taqqoslanganda, tajriba sinflarining samaradorlik ko'rsatkichi nazorat sinflari ko'rsatkichiga nisbatan 6 foizga yuqori ekanligi statistik usullar yordamida isbotlandi. 2024-2025 o'quv yili I, II, III, IV choraklardagi sifat ko'rsatkichlari 1-jadval hamda 1-rasmda o'z aksini topgan. Umumlashtirilgan natijalar, tajriba va nazorat sinflaridan olingan ko'rsatkichlar bo'yicha o'zaro taqqoslandi, matematik statistika (Student) mezonini metodi yordamida qayta ishlanib tahlil qilindi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bilingval kompetensiyalarni shakllantirish va CLIL ta'lim texnologiyalaridan foydalanish 6-sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogik tajriba-sinov jarayonida bilingval ta'lim orqali o'quvchilarning fan bilimlari, ilmiy tafakkuri va kommunikativ ko'nikmalari sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Tajriba guruhida olingan natijalar nazorat guruhiga nisbatan o'rtacha 6 foiz yuqori bo'lib, bu bilingval yondashuv va CLIL texnologiyasining ta'lim sifatini oshirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Shuningdek, metodik qo'llanmalar va nostandart topshiriqlar o'quvchilarning bilimlarni chuqur anglash hamda amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Natijalar pedagogik jarayonlarda bilingval kompetensiyalarni tizimli rivojlantirish, o'qituvchilar malakasini oshirish va CLIL texnologiyalarini keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa o'quvchilarda nafaqat ilmiy bilimlarni, balki global kommunikativ muhitda faol ishtirok etish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baker, C. Foundations of Bilingual Education and Bilingualism. – Bristol: Multilingual Matters, 2017.
2. Bialystok, E. Bilingualism in Development: Language, Literacy, and Cognition. – Cambridge: CUP, 2001.
3. Coyle, D., Hood, P., Marsh, D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
4. Cummins, J. BICS and CALP: Empirical and Theoretical Status of the Distinction. – Encyclopedia of Language and Education, 2008.
5. Cummins, J. Bilingualism and Cognitive Development. – London: Routledge, 2000.
6. Jo'rayev, A. Tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
7. Marsh, D. CLIL/EMILE: The European Dimension. – University of Jyväskylä, 2002.
8. Marsh, D. Content and Language Integrated Learning (CLIL). – Cambridge: Cambridge University Press, 1994.
9. Mehisto, P. Excellence in Bilingual Education. – Cambridge: CUP, 2012.
10. Mirzayeva, N.A. Ilmiy savodxonlik va bilingval ta'lim metodikasi. – Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2020.
11. Mirzayeva, N.A. Bilingval yondashuvning tabiiy fanlarni o'qitishda tutgan o'rnini. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2022.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni ("Ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida").: <https://lex.uz/ru/docs/-5085999>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son Qarori ("Chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida").: <https://lex.uz/en/docs/-5426736>
14. OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2019.
15. Raximov, A.K. Bilingval ta'lim asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
16. Xojiyeva, N. Zamonaviy pedagogikada bilingval ta'limning ahamiyati. – Toshkent: Fan va ta'lim, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.